



IBRAYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA OBRAZLILIK

Berdiboyev Ulug'bek Soatboy o'g'li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, "O'zbek tili va adabiyoti"
kafedrasi assistenti, Berdibayevuz@gmail.com, +998932005159
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17234530>

Annotatsiya

Maqolada hayotni poetik tadqiq etish tamoyillari, lirikada obrazlilik namoyon bo'lish shakli, adabiy talqinda ruhiy kechinma o'ziga xosligi, she'riy nutqda obyektiv voqelik hamda subyektiv munosabat izchilligi, hissiy idrok va falsafiy umumlashma nisbati qoraqalpoq shoiri I.Yusupov ijodi misolida umumlashtiriladi. Unda ifoda va tasvir uyg'unligi, falsafa va mantiq aloqasi, rivoya texnikasi va milliy til zahirasi xususida mushohada yuritiladi. Aslida badiiy mahorat belgi, ohang, rang, musiqa, ma'no imkoniyatlaridan foydalanish darajasiga bog'lanadi.


Abstract

The article summarizes the principles of poetic study of life, the form of manifestation of imagery in lyrics, the uniqueness of spiritual experience in literary interpretation, the consistency of objective reality and subjective attitude in poetic speech, the ratio of emotional perception and philosophical generalization on the example of the work of the Karakalpak poet I. Yusupov. It examines the harmony of expression and image, the connection between philosophy and logic, the technique of narration and the national language reserve. In fact, artistic skill is associated with the degree of use of the possibilities of sign, tone, color, music, meaning.

Tayanch so'zlar: obraz, obrazlilik, lirika, tahlil, tasvir, ifoda, hissiy idrok, falsafa, mantiq, ijod, poetik talqin, badiiy mahorat, muammo, estetik qiymat, shoir, baholash mezonlari, tushuncha, ma'no, ruhiy kechinma, g'oya, rivoya texnikasi, milliy til, belgi, ohang, rang, musiqa.

Key words: image, imagery, lyrics, analysis, depiction, expression, emotional perception, philosophy, logic, creativity, poetic interpretation, artistic skill, problem, aesthetic value, poet, evaluation criteria, concept, meaning, spiritual experience, idea, narrative technique, national language, symbol, tone, color, music.

Taniqli qoraqalpoq shoiri, tarjimon, dramaturg, publitsist, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni, "El-yurt Hurmati" hamda "Do'stlik" ordenlari sohibi Ibrayim Yusupov yorqin she'riyati allaqachon o'zbek kitobxonlari qalbidan joy olgan. "Baxt lirikasi" (1955), "Kunchiqar yo'lovchisiga" (1959), "O'ylar" (1960), "Yetti navo" (1962), "Dala orzulari" (1966), "Ko'ngil





ko'ngildan suv ichar" (1971), "To'maris" (1974), "Ilhom" (1987), "Tashvishlarga boy dunyo" (1987), "Tuzli shamollar" (1988), "Ko'ngildagi keng dunyo" (1989), "Bekligingni buzma sen..." (1995), "Har kimning o'z zamoni bor" (2004) she'riy to'plamlari bilan ikki xalq ma'naviyat xazinasidan munosib o'rin egallagan ijodkor adabiy talqinida ajib bir tarovat bor! Bu harorat zahmatkash qoraqalpoq xalqi qadar oqko'ngil fe'l-atvor, bag'rikeng o'zbek yanglig' iroda yo'nalishi omuxtalashgan lirikani taqdim etadi, yuksak intellektual ohang, sohir tuyg'ularni ko'z-ko'z etadi:

Shoir kezgan cho'lda bo'stonlar qator,
Bekor bo'lib ketdi zamon nobakor,
Bir ilhom parisin ko'rdim ishvakor,
Ayt sen Ajiniyozning qo'shiqlaridan [6:85].

Abdulla Oripov tarjimasida o'zbekchalashgan ohang Ibrayim Yusupov histuyg'ulariga hamohang, muallif o'zlik bilan yuzma-yuz turadi. Lavhada murojat ottenkasi aslida ham tasdiqni, ham inkorni tavsiflaydi. "Men" va "U" orasida aks etgan ziddiyat hajmi obraz analogiyasini hosil qiladi, hukm-xulosa qat'iy: Ayt sen Ajiniyozning qo'shiqlaridan! Shoir va shaxsiyat kesimini aynan obrazlar tizimi belgilab beradi, haqiqiy san'atkor nisbat, muqoyasa, tavsifdan shurga yuqadigan obraz yaratadi, sodda va **cho'ng** mushohada mohiyatni originallikka yo'naltiradi.

"Badiiy obrazning xususiyatlari haqida so'z ketganda, birinchi galda, uning individuallashtirilgan umumlashma sifatida namoyon bo'lishi xususida to'xtalish zarur. Ma'lumki, voqelikdagi har bir narsa-hodisada turga xos umumiy xususiyatlar bilan uning o'zigagina xos xususiyatlar mujassam... gap shundaki, abstrakt tafakkur narsa-hodisaning umumiy xususiyatlariga, obrazli tafakkur esa individual xususiyatlariga tayangan holda fikrlaydi" [5:91]. Subyektiv ibtido – obrazga singdirilgan ijodkor fitrati ramz, timsol, kechinma, obraz, umumlashma, belgi-xususiyatni yaxlitlashtiradi. Ideal asosida qayta ishlangan, estetik qiymat kasb etgan, tamomila o'zgargan mohiyat obraz taqvimini belgilaydi. Ijod hamda mutolaa aslida jarayon ikki qirrasini, unda anglash hamda idrok bir-birini aniqlovchi qismlarga ajraladi. Obraz materiali tushunchani moddiylashtirish jarayoniga borib taqaladi, voqelik uni jonli tasavvur qilishga yordamlashadi, xolos! Demak, tafakkur tahlil obyekti bo'lish bilan barobar talqin predmeti vazifasini ham o'taydi:

Gulshanda ochilgan bir toza gulday,
Chiroyingga chiroy qo'shgan ekansan,
Quvonchimni qay tarz aytishni bilmay,
Yutinib, termulib boqar edim man [6:124].





I.Yusupov she'riyatida obrazlilik falsafiy umumlashma shaklida jilvalanadi, shoir aksar hollarda an'anaviy talqin usulidan foydalanadi. So'z estetik tanlovi ijodkor fitrati o'ziga xosligini ta'minlaydi, lavhada "bir toza gul" ishqida yongan oshiq iztiroblari quyug'lashadi. Tabiiy tuyg'ular uyg'unligi yigit beg'ubor qalbini kashf etadi, ma'shuqa qiyofasida nafosat hukmron, lirik qahramon qayg'usi ham hayotbaxsh, ishonch hissiga yo'g'rilgan! Sezim ortida dunyo ziddiyatlari o'z qudratini yo'qotadi, samimiy iqrор (yutinib, termilib) ifodasi kitobxon shuurini band etadi, go'zallik qatimida vujudga kelgan umid hissi ko'ngil sozlarini chertadi.

"Badiiy obraz boshqa har qanday ijod namunalaridan o'zining muayyan emotsional- estetik g'oyaviy ta'sir kuchiga ega hissiy mazmuni bilan ham yaqqol ajralib turadi. Hissiy mazmun har xil bo'lishi mumkin. Faraz qilaylik, ijodkor birorta joy, voqea-hodisa ko'rinishini yoki uch-to'rtta shaxsning hayotidagi xatti-harakati, yurish-turishini, boringki, ularning ish va oiladagi faoliyatidan tortib, o'zaro intim munosabatlarigacha shunchaki qog'ozga tushirgisi kelib, tasvirlab bergan bo'lsin" [1:107]. Bayon va tasvir bir-biridan keskin tafovutlanadi, dastlabki tushunchada axborot shakli muhim bo'lsa, ikkinchisida obrazli idrok yetakchilik qiladi. Hissiy mazmun shakllanishi aynan tasavvurni qayta ishlash jarayoniga payvandlanadi, joriy holatda muallif munosabati predmetni o'rganish barobarida uni o'zgartiradi ham! Ijodiy islohot shoir uslubiy-shakliy ishlanmasida uyushadi.

Umuman, I.Yusupov she'riy nutqida obrazli tafakkur hayotni poetik tadqiq etish asosiy vositasi, shakl va mazmun birligini ta'minlagan shoir aksar hollarda falsafiy mushohadani teranlashtirishga moyillashadi. Ramz, timsol, obraz ijodiy mustaqilligini ta'minlaydigan badiiy umumlashma tarang hissiy idrokni sahnaga chiqaradi, tiniq tasavvur va aniq ifoda o'lchami ijodkor fitrati o'ziga xosligini belgilaydi. Individual talqin va universal mohiyat aslida obrazni tavsiflaydi. Unda kuchli ijtimoiy bosim, ma'naviy-ma'rifiy salohiyat va iste'dod darajasi aks etadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik, 1-jild. -Toshkent: Fan, 1978.
3. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. - Toshkent: Adabiyot va san'at, 2016.
4. Rasulov A. Badiiylik -bezavol yangilik. - Toshkent: Sharq, 2007.
5. Quronov D. Adabiyotnazariyasi asoslari. - Toshkent:Navoiy universiteti, 2018.
6. Yusupov I. Davr shamollari. - Nukus: Qaraqalpaqstan, 1982.
7. <http://www.ziyouz.com/>.

